



COMPARATIVE ANALYSIS OF PUNISHMENT SYMBOLS IN CONTEXT IN ENGLISH

Nazokat Odilova Abdulhamid qizi¹

¹ Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology, Teacher of Foreign Languages, Andijan, Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4753404>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021

Accepted: 25th May 2021

Online: 30th May 2021

KEY WORDS

punctuation, context,
punctuation, explanation,
spelling,
written form, stress, oral
speech, written speech.

INGLIZ TILIDA KONTEKSTDAGI TINISH BELGILARINING QIYOSIY TAHLILI

Nazokat Odilova Abdulhamid qizi¹

¹ Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi, Andijon, O'zbekiston

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma'qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO'ZLAR

punktuatsiya, kontekst,
tinish belgilari,
tushuntirish, yozuv usuli,

yozuv shakli, urg'u, og'zaki
nutq, yozma nutq.

ANNOTATSIYA

Punktuatsiyaning maqsadi biron-bir ko'rinish yoki ish-harakatning ma'nosini ochib berishda aniqroq hamda osonroq tushuntirish, yetkazib berish. Umuman olganda tinish belgilaridagi farq ma'no jihatdan farqlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, quyida berilgan ushbu ikkita gaplarga e'tiborimizni qaratamiz. Har ikkala gapda ham bir xil so'zlar bo'lib, ularning joylashish tartibi ham butunlay bir xil. Faqat tinish belgilarining qo'llanilishida farqlar mavjud.

Tinish belgilari baland ovoz bilan o'qilayotganda kuzatiladigan pauzalar, ohang o'xshashligi va tilning yozma shakli tuzilishi hamda tashkil topishini bildiruvchi belgilar hisoblanadi. Ingliz tili yozuvida tinish belgisi gaplarning ma'nosini talqin qilinishida juda zaruriy va muhim sanaladi. Masalan,

- 1) "woman, without her man, is nothing",
- 2) "woman: without her, man is nothing".

Ushbu berilgan ikki gapda so'zlar va ularning joylashish tartibi bir xil, faqatgina tinish belgilarining boshqa-boshqa joylarda qo'llanilishi gapning mazmunini o'zgartirib



yubormoqda. Birinchi gapda, “ayol, turmush o’rtog’isiz, hech narsa”, ikkinchi gapda esa “ayol: usiz, turmush o’rtog’i hech narsadir”.

3) “eats shoots and leaves”, ya’ni “u shox-shabbalar va barglarni yeydi”.

4) “eats, shoots and leaves”, ya’ni “oziq-ovqatlar, shox-shabbalar va barglar”.

Punktuatsiya qoidalari til bilan birga farqlanib, joylashish o’rni, vaqti doimiy ravishda o’zgarib, rivojlanib turadi. Punktuatsiyaning aniq hamda asosiy ko’rinishlari muallifning tanlash huquqi va uslubi bo’lganligidir.

Dastlabki yozuv usullari o’yib yozilgan yozuv shaklida va bo’g’in shaklida bo’lgan. Masalan, Xitoy va Maya yozuvini olsak, ushbu yozuvlarda punktuatsiyaning shart yoki shart emasligi ahamiyatli emas, asosiysi yozuvning joylashuvi bo’lgan. Butun boshli o’zak yoki so’z odatda oddiy chiziq shakllar bilan birlashtirilgan, shuning uchun yozuvning joylashishi biror-bir so’z tugab, ikkinchi bir so’z boshlanganda ularni ajratib farqlab olishga yordam bermaydi. Ya’ni so’zlar orasida hech qanday tinish belgilari bo’lmagan holatlar ham ko’p uchragan. Ma’no anglatib va urg’u berib so’z birikmasidagi arzimagan farqlardan foydalangan holda tilning og’zaki formasidan yozuv formasini ajratib foydalanilsa tinish belgisiz aloqaga kirishishi oson bo’ladi. Bugun zamonaviy ingliz tili yozuv shakli og’zaki shaklidan birozgina farqlanadi, chunki urg’u yozuvda ko’chgani bilan tinish belgisi o’zgaraydi.

Eng qadimgi alifbo shaklidagi yozuvda bosh harflar bilan yozilmagan, tinish belgilari ham mavjud bo’lmagan.

Tinish belgisi tarixan baland ovozda o’qish uchun yordam vazifasida kelgan.

Miloddan avvalgi IX asrda Mesha Stele tinish belgisi ishlatilgan qadimiy hujjatni bilishga erishdi.

Yunonlar miloddan avvalgi V asr atrofida ikki yoki uchta vertikal holatda tushgan nuqtalardan iborat tinish belgisidan foydalanishgan. Yunon dramaturglari, jumladan, Yevripid va Aristofaneslar yozgan dramasiidagi so’z birikmalarining oxirini ko’rsatib beruvchi belgilardan foydalanganlar. Ayniqsa, bu ikki dramaturg nutqni ajatib ko’rsatuvchi farqli belgilar, vergul (o’rtaga bitta nuqta qo’yish bilan ko’rsatilgan), ikki nuqta (yozuv chizig’iga bitta nuqta qo’yish bilan ko’rsatgan), nuqta (yuqoriga bitta nuqta qo’yish bilan ko’rsatgan)lardan foydalanganlar.

Taxminan Miloddan avvalgi I asrda Roman-Germanlar pauzalarni ifodalab berishda belgilardan foydalanganlar.

Punktuatsiya Xristian Bibliyaning nusxalari sonini ko’paytirish boshlanganida paydo bo’lib, rivojlana boshlagan. Bu esa o’z navbatida, baland ovozda o’qilganda ko’rkamlik kiritgan va nusxa ko’chiruvchilar o’qib beruvchiga yordam bo’lishi uchun belgilar tizimini ham kiritib ketadigan bo’lishgan. Bu belgilar bosh harflarning dastlabki ko’rinishlari bo’lib turli xil tinish belgilaini o’z ichiga olgan. Avliyo Jerom va uning hamkasblari tinish belgilarini bilgan holda Bibliyani Lotin tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo’lganlar. Keyinchalik bu Alkuin tomonidan butunlay yangilangan. Belgilar egri chiziq va turli joyda joylashgan nuqtalar: yozuv chizig’ining o’rtasida va yuqorisida joylashgan nuqtalarni o’z ichiga olgan.

Barchaga birdek tog’ri keladigan tinish belgilar tizimi Aldus Manutis va uning nabirasi tomonidan aniqlangan. Ular yozuv chizig’idan pastga uzun chiziq tushurib vergulni yaratishgan, ba’zi-ba’zida qavsdan foydalanishni yo’lga qo’yishgan, nuqtali vergulni kashf qilishgan va ikki nuqta yoki



nuqta yordamida gaplarni tugallashni o'rganib shuhrat topganlar.

Aslida bosma yozuvning kashf qilinishidan keyingacha tinish belgilarining foydasi bo'lmagan.

Yozuvning kashf qilinishidan biroz o'tgandan so'ng, o'qib beruvchiga ko'mak bo'lishi uchun gaplardagi pauza va to'xtamlaning zaruriyati ikki nuqta va nuqtaning yaratilishiga sabab bo'ldi. Vaqt o'tishi jarayonida harfga mutanosib holda faqatgina tik holda tushgan chiziq, vergul qo'shildi.

Bu uchta belgilar faqatgina XV asrga qadar Aldo Manukio vergulga yaxshiroq shakl, ko'rinish berib nuqtali vergulni yaratgunga qadar foydalanildi. Vergul eng qisqa pazani, nuqtali vergul keyingi pazani, undan keyin ikki nuqta va nuqta gapning tugallanganligini bildirardi. So'roq va his-hayajon (undov) belgilari bir necha yillardan so'ng qo'llanilgan.

Texnologiya rivojlanishining talab va me'yorlari punktuatsiyaga amaliy nuqtaiy nazardan yondashilinishiga turtki bo'ldi. Masalan, 1960-1970-yillarda film ko'chirib yoziladigan lentlardan foydalanadigan ko'pchilik uchun yozuv mashinkasidagi tinish belgilari kamaytirildi, shundan keyin, vergul va nuqtadan foydalanishgan.

Ingliz tilida ikkita asosiy punktuatsiya uslubi mavjud: Amerikacha va Rasmiy punktuatsiya. Yoki Britaniyacha va Mantiqiy punktuatsiya. Bu ikki uslubning asosiy farqi qo'shtirnoq belgisi hisoblanadi.

Boshqa Yevropa tillari Ingliz tilidagi kabi bir xil tinish belgisidan foydalanadilar. O'xshash tomonlari shunchalik yaqinki, hatto ayrim jihatlari sof inglizcha talaffuz bilan chalkashib ketadi.

Qo'shtirnoq belgisi Yevropa tillarida o'ziga xos o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, Fransuz va Rus tillarida qo'shtirnoq shunday ko'rinishda bo'ladi, Je suis fatigued .

Yunon tilida so'roq belgisi Ingliz tilidagi nuqtali vergul singari yoziladi, ikki nuqta va nuqtali vergulning vazifasini yozuv chizig'ining yuqorisiga nuqta qo'yish orqali qo'llaniladi.

Ispanlar so'roq belgisini so'roq gapning boshiga qo'yadilar, undov belgisini undov gapning boshiga qo'yadilar. Vaholanki ular aslida gapning oxiriga qo'yiladi.

Arab, Urdu va Persan tillarida tinish belgilar o'ngdan chapga teskari tarzda yoziladi. Arab tilida tinish belgisidan foydalanilmaydi. Gibril tilida Ingliz tilidagi bilan bir xil tinish belgilaridan foydalaniladi, faqat o'ngdan chapga qarab yoziladi.

Aslini olganda Sanskrit tilida tinish belgisi mavjud emas. XVII asrda Sanskrit va Marati tillarining ikkalasi ham Devanagari yozuvida yozilgan. Nasrni uzun ustun qilib (I), sh'ni ikki ustun shaklida (II) yozganlar.

Xitoy, Yapon va Koreys tillarida matnlar zamonaviy davrgacha tinish belgilersiz yozilgan. Tinish belgilari bo'lmagan matnlarda an'anaviy yozuvdagi gapning grammatik strukturasi kontekstdan klib chiqqan holda aniqlangan. Zamonaviy Xitoy, Yapon va Koreys tillaridagi ko'pgina tinish belgilari Ingliz tilida bir xil funksiya bajaradigan vazifadoshlarga ega. Shunga qaramay ular tez-tez farqni ko'rsatadi va odatdagi qoidalarida ham farqlar bor.

Puntuatsiyaning maqsadi biron-bir ko'rinish yoki ish-harakatning ma'nosini ochib berishda aniqroq hamda osonroq tushuntirish, yetkazib berish. Umuman olganda tinish belgilaridagi farq ma'no jihatdan farqlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, quyida berilgan ushbu ikkita gaplarga e'tiborimizni qaratamiz. Har ikkala gapda ham bir xil so'zlar bo'lib, ularning joylashish tartibi ham butunlay bir xil. Faqat tinish belgilarining qo'llanilishida farqlar mavjud.

- 1) Richard said, "The teacher is clever."
- 2) "Richard," said the teacher, "is clever."



Berilgan misoldagi birinchi gapda:

“O’qituvchi aqlli”, – dedi Richard. Yoki:

Richard: “O’qituvchi aqlli”, - dedi.

Ikkinchi gapda esa:

“Richard”, – dedi o’qituvchi, - “aqlli”.

Odatda biz ingliz tilida ko’p hollarda foydalanadigan tinish belgilar yuqorida berilgan misollarda ko’rsatilgan. Ular: qo’shtiirnoq belgisi (“”) (the quotation mark or inverted commas), asosan ko’chirma gaplarda foydalaniladi; undov belgisi (!) (the exclamation mark), kuchli his-hayajonni ifodalaganda yoki undov gaplarda qo’llaniladi;

so’roq belgisi (?) (the question mark), soroq gaplardan so’ng yoki so’rash ohangini bildirsa foydalaniladi; vergul (,) (the comma) hamda nuqta (.) (the full stop).

Ingliz tilida nuqta, ikki nuqta (:) (the colon) nuqtali vergul (;) (the semi-colon) va vergul umumiy jihatdan, so’zlarni tala ffuz qilayotganimizda ma’lum bir to’xtash qilmoqchi bo’lgan holatni ko’rsatishda ishlatiladi. Nuqta eng uzun pauzani, vergul eng qisqa pauzani, nuqtali vergul vrguldan uzunroq ammo ikki nuqtadan qisqaroq bo’lgan pauzani ifodalab keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xomskiy N. Ingliz tilining tovush namunasi / N. Xomskiy, M. Halle-N. Y., 1968.
2. Kristal D. Prosodik tizimlar va ingliz tilidagi intonatsiya / D. Kristal. - Kembrij, 1969.
3. Kristal D. Ingliz uslubini o’rganish. / D. Kristal, D. Deviy. - L., 1973.